

SUN'IY INTELEKTNING (SI) TA'LIMDAGI O'RNI. IMKONIYATLARI VA KAMCHILIKLARI.

Kurbonova Intizor Maxmudovna
*Toshkent shahar Sergeli tumani 269-makatabining Direktori, Biologiya
fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirgi kunda hayotimizga kirib borayotgan Sun'iy ong ya'ni Suniy intellektning ta'limdagi o'rni keng yoritilgan bo'lib, ushbu zamonaviy texnologiyaning maktab o'quvchilari va oliy ta'limida qanday muhim o'rin tutishi, imkoniyatlari va salbiy taraflari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt (SI), maktab ta'limi, Oliy ta'lim, baholash tizimi, raqamli yordamchi, virtual ta'lim, avtomatik tekshirish.

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА (ИИ) В ОБРАЗОВАНИИ. ЕГО ВОЗМОЖНОСТИ И НЕДОСТАТКИ.

Курбонова Интизор Махмудовна
*Директор школы №269 Сергелийского района города Ташкента, учитель
биологии.*

Аннотация. В данной статье широко рассматривается роль искусственного интеллекта, который в настоящее время входит в нашу жизнь, в образовании, а также обсуждаются важная роль, возможности и негативные аспекты этой современной технологии в школьном и высшем образовании.

Ключевые слова: искусственный интеллект (ИИ), школьное образование, высшее образование, система оценки, цифровой помощник, виртуальное образование, автоматическое тестирование.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI) IN EDUCATION. ITS OPPORTUNITIES AND DISADVANTAGES.

Kurbanova Intizor Makhmudovna
*Director of School No. 269 of the Sergeli District of Tashkent City, Biology
Teacher.*

Abstract. This article broadly covers the role of Artificial Intelligence, which is currently entering our lives, in education, and discusses the important role, opportunities and negative aspects of this modern technology in school students and higher education.

Keywords: Artificial Intelligence (AI), school education, Higher education, assessment system, digital assistant, virtual education, automatic testing.

Hozirgi kunda zamonaviy va insoniyat hayotidagi eng buyuk texnologiyalardan biri deb ta'riflanayotgan Sun'iy intellekt hayotimizning har jabhasida kundan kunga mukammal bo'lib gavdalanmoqda. Video roliklar yaratishdan tortib, ma'lumotlarni tahlil qilishgacha barcha vazifalarni inson omilisiz bajarmoqda. Mamlakatimizda ham ta'limga berilayotgan imkoniyatlar zahirida, raqobat bardosh texnologiyalar davrida yoshlarga Sun'iy intellekt bilimlarini o'rgatib borish eng dolzarb masalalardan biridir. Ushbu masalalarni hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2024-yil 14-iyundagi PQ-358-son Qarori, shuningdek, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-son Farmonini ta'kidlash alohida o'rinlidir. Ushbu qarorda; Sog'liqni saqlash, energetika, bank-moliya, bojxona-soliq, transport, tog'-kon va qishloq xo'jaligi sohalarida sun'iy intellekt bo'yicha 100 ta loyiha rejalashtirilgan. Ularni amalga oshirish uchun shunga mos quvvatlar, zamonaviy super kompyuterlar kerak. Lekin hozirgi mavjud quvvatlar faqat kichik loyihalarni ishga tushirish uchun yetadi.

Shu bois, zamonaviy super kompyuter klasterlari va "Data-markaz"larni ko'paytirish zarurligi qayd etildi. Bu yil 16 ta super kompyuter sotib olish uchun 50 million dollar ajratildi. Keyingi yil bu mablag' 2 karra oshiriladi. Sohaga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun Qoraqalpog'istonda imtiyozli rejim joriy qilinishi belgilandi. Sun'iy intellekt infratuzilmasiga 100 million dollardan ko'p sarmoya kiritgan investorlarga elektr energiyasining narxi 5 sent etib belgilanadi, IT-park imtiyozlari tatbiq etiladi, import uskunalari bojxona to'lovidan ozod etiladi. Shu bilan birga, olis hududlarni yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlash uchun keyingi yildan "sputnik internet" operatorlarining faoliyati yo'lga qo'yiladi. Ular besh yilga yer, mol-mulk, foyda va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi.

Sun'iy intellekt (SI) – bu kompyuter tizimlarining inson kabi o'rganishi, tahlil qilishi va qaror qabul qilish qobiliyatidir. Ta'limda SI o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, o'qitish sifatini oshirish va o'qituvchining yukini yengillashtirish uchun qo'llanilmoqda. SI ning ta'limdagi asosiy vazifalaridan biri – individual yondashuvni ta'minlashdir. An'anaviy sinfda barcha o'quvchilar bir xil tezlikda o'qiydi, lekin SI tizimlari har bir o'quvchining bilim darajasi, xatolari va o'rganish uslubini tahlil qilib, unga mos topshiriqlarni beradi. Sun'iy intellekt o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi va o'zlashtirish tezligini tahlil qilib, har bir o'quvchi uchun mos ta'lim yo'nalishini taklif etadi. Bu esa: bilimdagi bo'shliqlarni aniqlash, Shaxsiy o'quv rejasini yaratish, O'quvchining mustaqil rivojlanishiga yordam beradi. SI test natijalari, yozma ishlar va faoliyatni avtomatik baholay oladi. Bu: O'qituvchining vaqtini tejaydi, Baholashda xolislikni ta'minlaydi, Real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi.

SI ta'limda o'quvchilarga ko'plab afzalliklarni beradi, jumladan; ta'lim sifati oshadi, o'quvchida markazli ta'lim shakllanadi, o'qituvchilarning yuklamasi kamayadi, masofaviy ta'lim rivojlanadi, ta'limda teng imkoniyatlar yaratiladi. Shu bilan birga o'quvchi biror ma'lumot yoki manbaani, internetdan yoki, ijtimoiy tarmoqlardan qidirganda ko'proq vaqt yo'qotishi mumkin, SI berilgan savolga aniq javob beradi, o'quvchi va o'qituvchining vaqtini tejaydi. Ta'lim jarayonida sun'iy intellektning qo'llanilishi quyidagi imkoniyatlarga yoki holatlarga olib kelishi mumkin. Shaxsiylashtirilgan ta'lim, SI o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va o'rganish tezligini tahlil qilib, har bir o'quvchi uchun mos o'quvchi. Bu esa bilimni chuqurroq va samaraliroq o'zlashtirishga yordam beradi. Avtomatik baholash tizimlari, testlar, yozma ishlar va uy vazifalarini tekshirish orqali o'qituvchilarning vaqti tejaladi. Shu bilan birga, baholashda inson omili sababli yuzaga keladigan xatolar kamayadi. Virtual yordamchilar va tyutorlar, chatbotlar va virtual o'qituvchilarga 24/7 rejimida savollarga javob berishi, murakkab mavzularni tushuntirishi mumkin. Bu ayniqsa masofaviy ta'limda muhim ahamiyatga ega. Ta'limdagi tahlil, SI yordamida o'quvchilarning o'zlashtirish

darajasi tahlil qilinadi, qaysi mavzularda qiyinchilik borligi aniqlanadi va o'qituvchiga aniq tavsiyalar beriladi. Sun'iy intellektning afzalliklari, Ta'lim sifati va samaradorligi oshadi, o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyati rivojlanadi, o'qituvchilarning yuklamasi kamayadi, masofaviy ta'lim imkoniyatlari kengayadi.

Muammolar va xavotirlar shundan iboratki, SI ta'limda ayrim muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin: O'quvchilarning haddan tashqari texnologiyaga bog'lanib qolishi. Akademik halollik (plagiat, avtomatik javoblar) muammosi. Texnologiyaga teng kirish imkoniyatining yo'qligi, o'qituvchining tarbiyaviy roli kamayib ketish xavfi yuqori bo'lib turibdi.

XULOSA:

Sun'iy intellekt ta'lim sohasida katta imkoniyatlar yaratmoqda. U to'g'ri va mas'uliyat bilan qo'llanilganda, ta'lim sifatini oshirish, bilim olish jarayonini qulay va samarali qilishda muhim vositaga aylanadi. Biroq SI o'qituvchini to'liq almashtira olmaydi, balki uni qo'llab-quvvatlovchi yordamchi sifatida xizmat qilishi lozim. SI o'quvchiga ta'lim berishi mumkin, biroq, uni nazorat qilolmaydi va tarbiyaviy jihatdan uning o'rnini egallay olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2024-yil 14-iyundagi PQ-358-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-son Farmoni.
3. Ahmad, M.F.; Gapar. "Malayziya oliy ta'limida sun'iy intellekt davri: o'z-o'zini kashf qilish ta'limi uchun aralash haqiqat moddiy ta'lim tizimidagi ta'sir va muammolar". Procedia kompyuter. 2019, 163, 2-10.